

**SOLIQ TUSHUMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH,
PROGNOZLASHTIRISH VA REJALASHTIRISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI**

Bobonazarova Dilnoza Qaxramonovna
Davlat Soliq Qo'mitasi huzuridagi Fiskal instituti,
+998979261717
dkbobonazarova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorij mamlakatlaridagi soliq tushumlari samaradorligini oshirish, prognozlashtirish va rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishni tahlil qilinadi. Ishonchli moliyalashtirish uchun to'liq tahlil orqali, maqola ekonomik rivojlanish muhitida aniqlik, ishbilarmonlik va fikrlarining muhim qismlarini ko'rsatadi. Xorijiy olimlar qarashlarini o'rganib, byudjet tushumlari aniqlik va loyihalashda turli qarashlarni o'rganishga foydalanishini ko'rsatadi. Maqola iqtisodiy-matematik model qilish va bashorat qilishning bu jarayonlarga shakllantirilishida qanday muhimlikka ega bo'lismeni yoritadi. Jamiyatimizning barqarorlik va rivojlanish uchun moliyaviy boshqaruvni rivojlantirishning muhimligini boshqa fikrlar bilan birga ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: prognozlashtirish, rejalashtirish mexanizmlari, soliq tushumlari, moliyalashtirish, olimlar, ekonomik rivojlanish, pandemiya davri, tadbirkorlik faoliyati, optimal yo'nalishlar, ilmiy tadqiqot, iqtisodiy kamayish, turli omillar, daromadlar kamayishi, qarashlar, iqtisodiy-matematik modellashtirish, moliyaviy boshqaruv.

Abstract: This article deals with enhancing the efficiency of tax revenues in countries around the world by refining the mechanisms of forecasting, managing, and allocating fiscal resources. Through a comprehensive analysis, the article emphasizes the importance of accurate budgetary planning and the utilization of various methodologies in the context of economic development. The research investigates the challenges posed by factors and recommends optimal strategies for shaping budget revenues. The contributions of foreign scholars are highlighted, shedding light on diverse perspectives and methodologies employed in forecasting budget revenues. This article underlines the significance of adapting economic-mathematical modeling and prediction techniques, considering social and economic dynamics. Overall, it underscores the importance of advancing fiscal management for the prosperity of every nation.

Keywords: forecasting, management mechanisms, fiscal resources, scholars, economic development, entrepreneurial activity, optimal strategies, tax revenues,

scientific research, various factors, revenue generation, challenges, economic-mathematical modeling, financial management.

Hududning mahalliy byudjetining daromadlarini o‘rta muddatli prognozlashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan **Y. Chimitdorjieva** hududning mahalliy byudjetining daromadlarini prognozlashtirishni soliq tushumlarini prognozlashtirish sifatida baholaydi va shuningdek, mahalliy byudjetlarni o‘rta muddatli prognozlashtirishni amalga oshirishda qo‘llaniladigan metodlar sifatida deterministik, ekspertli, vaqt qatorlari, matematik, ekstroplatsiya kabilarni tavsiya etganligini takidlaydi. Shuningdek, hududning o‘rta muddatli byudjet daromadlarini prognozlashtirishning uslubiy asoslarini ko‘rsatib bergen, mahalliy byudjetning soliqli daromadlarini prognozlashtirishning klassifikatsiyalashtirgan, mahalliy byudjetni prognozlashtirish va rejalarashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslab beradi.¹

Mualliflar **Y.D.Raznik** va **I.A.Samsonovalarning** o‘quv qo‘llanmasida soliq sohasidagi soliqqa tortish va prognoz qilishning vazifalari va muammolarini qo‘yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak, shuningdek, zamonaviy iqtisodiy rivojlanish faktorlarini hisobga olgan holda korxonalarga soliqlar yoki to’lov yuklarining tahlili bilan bog‘liq muammolarni yechishni bilishlari lozim. Ushbu maqsadlarga yuqorida darslikni tuzishda e’tibor qaratilgan.

“Прогнозирование и планирование в налогообложении: Учебное пособие” qo‘llanmasining maqsadi soliqlashda prognozlash va rejalarashning nazariy asoslari va mexanizmlarini makro va mikro strukturalarda o‘rganishdir. Qo‘yilgan maqsad orqali quyidagi vazifalar hal qilingan:

- mikro darajada soliqlashda prognozlash va rejalarash sohasida asosiy kompleks bilim va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish;
- talabalarga davlat va soliq to’lovlarini, shuningdek, soliqqa tortish qonunlarini hurmat qilish orqali iqtisodiy manfaatlarini saqlash bo‘yicha soliqlar yoki to’lov yuklarini sifatli qo‘llash mahoratlarini shakllantirish;
- maxsus yo‘nalishli fanlarni o‘rganish va o‘quvchilarni soliq yo‘nalishidagi fanlarni chuqur tahlil qilishga tayyorlashda komplekslashtirishni rivojlantirishga yordam berishdir.²

Turli darajadagi byudjetlarning daromad manbalari prognozlashtirish muammolari bilan shug‘ulanib keladigan xorijlik olimlardan **S.Makridaks**, **S.Uilrayt** va **V.MakGilar** mahalliy darajadagi byudjetlarning daromadlarini prognozlashtirish bo‘yicha o‘zlarining metodologiyasining mohiyati sifatida

¹ Чимитдоржиева Екатерина Цыренжабовна. Среднесрочное прогнозирование налоговых доходов консолидированного бюджета региона. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иркутск – 2011. С.3-24.

² Разник Е.Д., Самсонова И.А. Прогнозирование и планирование в налогообложении: Учебное пособие. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2006. 14с

daromadlarning manbalarini to'g'ri baholash, ularning byudjetga jalb qilishning vositalari sifatida moliyaviy instrumentlardan to'g'ri foydalanishni taklif etgan, shuningdek, prognozlashtirishning sabab-oqibat va davriy qatorlar usullarini taklif etgan.³

Shuningdek xorjlik olimlardan **S. Danninger** ham o'z tadqiqotlarida mahalliy byudjetlarning daromadlarini rejalashtirish va prognozlashtirishda barcha davlatlar uchun yagona metodika ishlab chiqishning imkoni yo'qli va bu narsa har bir mamalakatning milliy xususiyatidan kelib chiqishi lozimligi va bu boradagi muammolar xususida fikr yuritadi.⁴

Mahalliy byudjetning daromadlarini rejalashtirish va prognozlashtirish borasidagi ilmiy tadqiqotlari bilan tanilgan **M.V.Kotelnikova** ham o'z ilmiy tadqiqotlarida mahalliy byudjetlar daromadlarini prognozlashtirish va uni rejalashtirishning dolzARB muammolariga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, "turli darajadagi byujdetlarning daromadlarini prognozlashtirishda soliqlarni prognozlashtirish va soliqlarni rejalashtirishni taqqoslama xususiyatlarini uning ob'ekti, sub'ekti, maqsadi va baholash mezoni sifatida qarash kerak. Va yana ta'kidlaydiki, mahalliy byudjetlarning soliqli daromadlarini rejalashtirish moliya organlarining faoliyati bo'lsa, soliqlarni rejalashtirish esa soliq xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish kerak". M.V.Kotelnikova o'z tadqiqotlarida shuningdek, mahalliy byudjet daromadlarini prognozlashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan iqtisodchilar: Ye. N. Yevstigneyev i N. G. Viktorova, A. M. Baltina, E. I. Komarova, M. A. Troyanskaya, I. I. Bablenkova, L. S. Kirina, G. N. Karpova, N. A. Goroxova, I. A. Mayburovlarning soliqli daromadlarni rejalashtirish mahalliy hokimiyat darajasidagi faoliyat, soliqlarni rejalashtirish esa, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amalga oshiriladi degan g'oyalarining ilmiy talqini keltiradi.⁵

Rus olimlaridan **Y.V.Tumanskaya** fikricha mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini kuchaytirish va mahalliy ahamiyatga molik muammolarni hal etish samaradorligini oshirish zarurati mahalliy byudjetlarga daromadlarni shakllantirish tizimini ham byudjetni boshqarish nuqtai nazaridan, ham hududiy daromadlar bazasini baholashning ishonchliligi nuqtai nazaridan takomillashtirishni taklif etadi⁶.

V.Marxayeva mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini real mustahkamlash, ularning moliyaviy-iqtisodiy bazasini kengaytirish, byudjet federalizmi prinsiplarini

³ S Makridakis, S.C Wheelwright, V.E.McGee Forecasting, methods and applications. – New York, Malloy Lithographing, Inc., 1983. – 926

⁴ Stephan Danninger. Revenue Forecasts as Performance Targets (IMF Working paper WP/05/14). Washington, DC, International Monetary Fund, 2005.

⁵ М. В. Котельникова. Дискуссионные вопросы сущности планирования налоговых доходов бюджетов. //Финансовая, налоговая и денежно-кредитная политика. №3. 154.

⁶ Туманская Юлия Вячеславовна. "Формирование доходов местных бюджетов в условиях реформирования местного самоуправления". Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иваново 2004 20-стр.

amalga oshirish asosida byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi.⁷

Davlat sektoridagi muassasalar va ularni moliyalashtirish borasida Avstraliyalik olim **Kallender** izlanish olib borgan. Uning izlanishlarida davlat sektoridagi muassasalarning tabiatи, tarixi va roli tadqiq etilgan. Davlat sektoridagi muassasalar hukumat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi boshqaruv aloqalarini amalga oshirishda qatnashib, davlat boshqaruvi jarayonida qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi, degan xulosaga kelgan. Davlat sektoridagi muassasalarning davlat xizmatlari samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashdagi o'rni, iqtisodiyotni boshqarish va rag'batlantirishga ta'siri haqida o'z tavsiyalarini bergan.⁸

Muallif **S. Armstrong** "Prognozlash prinsiplari: Issiqbolar va Amal ishlab chiqaruvchilar uchun qo'llanma" sohadagi ekspertlar va tajribali tadqiqotlardan olingan bilimlarni tahlil qiladi. Ushbu kitob iqtisodiyot, sotsiologiya va psixologiya kabi sohalarda qo'llaniladigan ko'rsatmalarni ko'rib chiqadi. U buxgalteriya, marketing, kadrlar, va ishlab chiqarish sohasidagi muammolarga yechim topishga harakat qilingan. Kitob Pensilvaniya Universitetining Wharton maktabi professori J.Skott Armstrong tomonidan tahrirlangan hamda prognozlash sohasining 40 nafar yetakchilari tomonidan yozilgan prognozlashning barcha turdag'i usullarini o'z ichiga olgan 30 ta bobdan iborat. Ekonometrik usullar, ekspert tizimlari, qo'shma analiz, analogiyalar va qoida asosli prognozlash kabi ba'zi usullar va jarayonlarni birlashtirgan. Har bir sohada mualliflar prinsiplar va ularga isbotlarni mujassamlashtirgan. To'rt yil davomida ishlab chiqarilgan loyiha proqnozlash haqidagi yana bir mukammal kitobni taqdim etadi. Bundan tashqari, 120 dan ortiq ekspert tomonidan sinoar tashkil etildi, ba'zi tahlillar ko'rib chiqildi. Kitobda birinchi umumiy prognozlash lug'ati ham kiritilgan.⁹

Muallif **M.Samonasnning** "Xalqaro savdo, tahlil va model xo'jaligi" muammolarga amaliy yondashuvlarni taqdim etgan. Muallifning kitobida soha mutaxassislarini barcha vosita, texnika va o'ziga xos yondashuv orqali bilimini oshirish va ish jarayonini tuzishda yordam beradi deb hisoblaydi. Kitob haqiqiy reallikka moslashtirilgan texnika va texnologiyalar bilan kuchli moliyaviy prpgnozlashtirishni rivojlantirish maqsadida keng qamrovli tushuncha beradi.¹⁰

⁷ Мархаева Виктория Владимировна. "Пути укрепления доходной базы местных бюджетов (напримере диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Ростов-на-Дону 2004 28-стр.

⁸ Callender G. (2001) Public Sector Organizations. International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences. 2001, Pages 12581-12585

⁹ S. Armstrong, "Principles of Forecasting: A Handbook for Researchers and Practitioners", Springer Science & Business Media, 2001 - Business & Economics - 849 pages

¹⁰ Michael Samonas, "Financial Forecasting, Analysis, and Modelling: A Framework for Long-Term Forecasting", John Wiley & Sons, Mar 30, 2015 - Business & Economics - 45 pages

Mualliflar **Maks Kun va Kjell Jonson** kitobida, prognozlash va modellash texnikalarini taqdim etadi va ularni soliq prognozini samarali qilish uchun mo‘ljallangan tajribalarni taklif qiladi.¹¹

Mualliflar **Rob J. Hyndman va George Athanasopoulos** prognozlash prinsiplari bo'yicha tuzilgan kitobida, turli iqtisodiyot sohalariga oid tahlillarni o'z ichiga oladi, shu jumladan soliqqa tortish mexnizmlarini samarali qo'llashni joriy etish va rejalashtirishga mos keladi.¹²

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Callender G. (2001) Public Sector Organizations. International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences. 2001, Pages 12581-12585
2. Max Kuhn, Kjell Johnson, "Applied Predictive Modeling", Springer Science & Business Media, May 17, 2013 - Medical - 60 pages
3. Michael Samonas, "Financial Forecasting, Analysis, and Modelling: A Framework for Long-Term Forecasting", John Wiley & Sons, Mar 30, 2015 - Business & Economics - 45 pages
4. OTexts, May 8, 2018 - Business & Economics - 380 pages.
5. Rob J Hyndman, George Athanasopoulos, "Forecasting: Principles and Practice",
6. S Makridakis, S.C Wheelwright, V.E.McGee Forecasting, methods and applications. – New York, Malloy Lithographing, Inc., 1983. – 926
7. S. Armstrong, "Principles of Forecasting: A Handbook for Researchers and Practitioners", Springer Science & Business Media, 2001 - Business & Economics - 849 pages
8. Stephan Danninger. Revenue Forecasts as Performance Targets (IMF Working paper WP/05/14). Washington, DC, International Monetary Fund, 2005.
9. М. В. Котельникова. Дискуссионные вопросы сущности планирования налоговых доходов бюджетов. //Финансовая, налоговая и денежно-кредитная политика. №3. 154.
10. Мархаева Виктория Владимировна. “Пути укрепления доходной базы местных бюджетов (напримере диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Ростов-на-Дону 2004 28-стр.
11. Разник Е.Д., Самсонова И.А. Прогнозирование и планирование в налогообложении: Учебное пособие. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2006. 14с
12. Туманская Юлия Вячеславовна. “Формирование доходов местных бюджетов в условиях реформирования местного самоуправления”. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иваново 2004 20-стр.
13. Чимитдоржиева Екатерина Цыренжабовна. Среднесрочное прогнозирование налоговых доходов консолидированного бюджета региона. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иркутск – 2011. С.3-24.

¹¹ Max Kuhn, Kjell Johnson, "Applied Predictive Modeling", Springer Science & Business Media, May 17, 2013 - Medical - 60 pages

¹² Rob J Hyndman, George Athanasopoulos, "Forecasting: Principles and Practice", OTexts, May 8, 2018 - Business & Economics - 380 pages.